

**"III Inno Cyber Law Week Tashkent 2025"
xalqaro konferensiyasi yakunlari bo'yicha**

HISOBOT

Adliya vazirligi ko'magida TDYUUning "Kiber huquq" kafedrasi tomonidan tashkil etilgan anjumanda Yaponiya, Italiya, Polsha, Turkiya, Germaniya, Hindiston kabi 15 ta davlatdan yetakchi ekspertlar ishtirok etdi. Konferensiyaning asosiy yutuqlari: Myunster universiteti (Germaniya) bilan hamkorlik memorandumini imzolash, O'zbekiston qonunchiligini raqamli huquq sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha ekspert tavsiyalarini ishlab chiqish, kiberhuquq sohasidagi ilg'or tajribalar markazini tashkil etish konsepsiyasini shakllantirish. Ishtirokchilar tarkibi, dastur va xalqaro hamkorlar to'g'risidagi bat afsil ma'lumotlar 1-ilova "Konferensiyaning umumiyl tahlili hisoboti"da keltirilgan.

Ekspert muhokamalari natijalariga ko'ra, O'zbekiston huquqiy tizimi uchun beshta asosiy yo'nalish, jumladan, sun'iy intellektni tartibga solish, ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli moliyalashtirish, davlat boshqaruvini transformatsiya qilish va raqamli huquqiy ta'lim bo'yicha ustuvor tavsiyalar tizimlashtirilgan. Xususan, mutaxassislar "Sun'iy intellektni tartibga solish to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, raqamli moliyaviy vositalarni sinovdan o'tkazish uchun normativ-huquqiy bazani yaratishni tavsiya qilmoqda. Ekspert tavsiyalarining to'liq matni, ularning dolzarbligi va kutilayotgan natijalarning asoslanishi "Ma'ruzalar natijalari to'plami"ning 2-ilovasida keltirilgan.

Ishlab chiqilgan tavsiyalarini samarali amalga oshirish uchun Kiberhuquq boshqarmasi tomonidan mas'ul ijrochilar va aniq muddatlarni ko'rsatgan holda 2025-2026-yillarga mo'ljallangan dastlabki "yo'l xaritasi" tayyorlandi. Ekspertlarning baholashicha, taklif etilayotgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston raqamli iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishi va raqamli rivojlanish bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rmini mustahkamlashi mumkin. Eng dolzarb tavsiyalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish uchun idoralararo ishchi guruh tuzish imkoniyatini ko'rib chiqishingizni so'rayman.

Chuqur hurmat bilan,

**"Kiberhuquq" kafedrasi mudiri,
professor S.S. Gulyamov**

Mas'ul ijrochi:

Allaxraxa, N.M.